

SARLAVHALAR TARJIMASIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Bahramova Muhtarama,

*Alisher Navo'i nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universitrtining tarjima nazariyasi va
amaliyoti fakulteti 4-bosqich talabasi.
muhtaramabahramova8@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi matnlarda uchraydigan sarlavhalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida so'z yuritiladi. Sarlavha matnning eng muhim qismi bo'lib, u asarning mazmunini qisqa, lo'nda va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Tarjima jarayonida sarlavhaning ma'nosini, uslubini va madaniy mazmunini to'g'ri yetkazish juda muhim. Maqolada sarlavhalarni tarjima qilishda ishlatiladigan asosiy usullar — so'zma-so'z tarjima, funksional ekvivalent topish va adaptatsiya qilish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ilmiy, publitsistik va badiiy matnlardagi sarlavhalar misol qilib olinib, ularning tarjimasi tahlil qilinadi. Natijada, sarlavhalarni tarjima qilishda ma'no va shakl uyg'unligini saqlash eng to'g'ri va samarali yondashuv ekanligi aniqlanadi

Kalit so'zlar: heading, sarlavha, tarjima, ekvivalentlik, adaptatsiya, funksional tarjima, semantika, stilistika.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu narsa ayniqsa tarjima jarayonida yaqqol ko'rinadi. Ayniqsa, sarlavhalarni tarjima qilishda bu bog'liqlik yanada seziladi. Chunki sarlavha — bu oddiy nom emas, u butun matnning mazmunini, g'oyasini va ohangini ifodalaydigan qisqa, lekin mazmunli birlikdir. O'quvchi avvalo sarlavhaga qaraydi va shu asosda matnga qiziqish hosil qiladi. Shuning uchun sarlavhani to'g'ri tarjima qilish butun matnni to'g'ri anglash uchun juda muhim.

Ingliz tilidagi sarlavhalar ko'pincha qisqa, obrazli va ba'zan madaniy ma'noga ega bo'ladi. Ular metafora, iboralar, so'z o'yinlari yoki kinoyalar asosida tuzilgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, bunday sarlavhalarni o'zbek tiliga tarjima qilayotganda so'zma-so'z yondashuv har doim ham to'g'ri natija bermaydi. Masalan, ingliz tilida yaxshi eshitiladigan yoki kulgili bo'lgan sarlavha o'zbek tilida o'z jozibasini yo'qotishi mumkin. Shu sababli tarjimon sarlavhani faqat so'z darajasida emas, balki uning mazmuni, ohangi va ta'sir kuchini ham hisobga olishi lozim. Sarlavhalarni tarjima qilishda bir necha usullardan foydalaniladi. Eng oddiy usul — so'zma-so'z tarjima, ya'ni sarlavhani asl shaklda o'girish. Bu usul ilmiy matnlarda ko'p ishlatiladi, chunki bunday matnlarda aniqlik birinchi o'rinda turadi. Ammo badiiy yoki publitsistik

sarlavhalarda funksional ekvivalent yoki adaptatsiya usullarini qo'llash ko'proq foydali bo'ladi. Funksional ekvivalent — bu sarlavhaning ma'nosini saqlab, o'quvchiga xuddi asl matndagi ta'sirni beradigan variant topishdir. Adaptatsiya esa sarlavhani madaniy va til jihatdan o'quvchiga yaqinroq shaklda ifodalashdir. Masalan, ingliz tilidagi “Breaking the Silence” sarlavhasini o'zbek tiliga “Sukutni buzish” deb tarjima qilish mumkin — bu funksional ekvivalent bo'ladi. Ammo “The Big Apple” (Nyu-York haqida ishlatiladigan ibora) sarlavhasini so'zma-so'z “Katta olma” deb tarjima qilish to'g'ri emas; bu o'rinda adaptatsiya qilib “Nyu-York — orzular shahri” deb tarjima qilish mantiqiyroq bo'ladi. Shunday qilib, sarlavhalarni tarjima qilish jarayoni oddiy so'z o'girish emas, balki ijodiy va tafakkur talab etadigan ishdir. Tarjimon har doim ikki madaniyat orasida vositachi bo'ladi: u nafaqat so'zlarni, balki ularning ortidagi ma'nolarni, his-tuyg'ularni va ohangni ham o'tkaza olishi kerak. Odatda ingliz yangilik sarlavhalari juda qisqa va sodda bo'ladi, fe'l ko'pincha tushib qoladi, ba'zan zamonlar buziladi. Jurnalistik sarlavhalarda ko'plab tarjimonlar muammolarga duch kelishadi. Chunki ingliz tilida bu usulda berilgan sarlavhalarda zamon noaniq bo'ladi va bunday qisqa ifodalashdan ko'zlangan maqsad – o'quvchiga tez xabar berish. Misol uchun, “Storm Hits Florida” birikmasini to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda “Bo'ron Florida uradi” deya tarjima qilinadi. Biroq bu o'quvchi ongida tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Aniq ma'noni yetkazib berish uchun tarjimon ma'noga ta'sir qilmagan holda kengaytirishi mumkin. “Bo'ron Floridani larzaga soldi” deya tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'zbek tilida yangiliklarni to'liq fe'l va aniq ohangda bo'lishi kerak. Har qanday ingliz sarlavhasini (publististik uslubdagi) o'zbek publististik usuliga moslashtirish lozim. Birgina so'z tanlash emas, balki konteksga mos jihatlarga e'tibor berish kerak. Ma'lum matn yoki voqeadagi kulminatsion nuqtani topa olish va bu nuqtani o'zbek tilining ifodash uslubiga moslashtirish juda ahamiyatli hisoblanadi. Tarjima jarayonidagi yana bir muhim jihat tarjimonning transformatsiyalardan to'g'ri foydalanishi hisoblanadi. Sintaktik transformatsiyalar bu uslubda keng qo'llaniladi. Misol uchun, ko'p holatlarda artikllar ishlatilmaydi, fe'llar qisqa shaklda ifodalanadi. Sarlavhaning ta'sir kuchi tarjimada yo'qolmasligi kerak. Buning uchun sinonimlar, o'zbek publitsistikasida qo'llanadigan emotsional leksika ishlatiladi.

Xulosa

Publitsistik uslubda sarlavha tarjimasi tarjimonning nafaqat lingvistik bilimini, balki davr ruhini, publitsistik uslub qonuniyatlarini va o'quvchi psixologiyasini tushunishini talab qiladi. Tarjima jarayonida ma'no, uslub, ta'sirchanlik va lo'ndalik uyg'un bo'lishi zarur. Shuningdek, ingliz publitsistik an'analari bilan o'zbek publitsistik madaniyati o'rtasida muvozanat topish tarjimaning sifatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саломов, Г. (1982). Таржима назарияси асослари. Тошкент: Фан.

2. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden: Brill.
3. Venuti, L. (1995). The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge.
4. Xayrullaev, N. (2010). Tarjima jarayonida milliylikni saqlash masalalari. Toshkent: TДПУ нашри.
5. Olohan, M. (2020). *Translation and Practice Theory*. Routledge